

MINTAQADA MOLIYAVIY XIZMATLAR KO'RSATISHNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI

Jo'rayev Shermat Isroilovich

Buxoro Davlat universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqola mintaqada moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning rivojlanish xususiyatlari va tamoyillariga bag'ishlangan bo'lib, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning tashkiliy (shaffoflik, qulaylik, xavfsizlik ta'minlash asosida ma'lumotlarni himoya qilish, mijozga yo'naltirilganlik, qonuniylik), iqtisodiy (ishonchlilik, adolatlilik, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy samaradorlik, riskni tartibga solish) tamoyillarining guruhlanishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy xizmat, moliya bozori, tashkiliy- iqtisodiy, bank, sug'urta, pul-kredit, fiskal, tashqi savdo siyosati.

Аннотация

Данная статья посвящена особенностям и принципам развития оказания финансовых услуг в регионе, рассмотрена классификация организационных (прозрачность, удобство, обеспечение безопасности на основе защиты данных, клиентоориентированность, законность) и экономических (надежность, справедливость, финансовая грамотность, экономическая эффективность, регулирование рисков) принципов оказания финансовых услуг.

Ключевые слова: Финансовая услуга, финансовый рынок, организационно-экономический, банк, страхование, денежно-кредитная, фискальная, внешнеторговая политика.

Abstract

This article examines the peculiarities and principles of financial services development in the region, presenting a classification of organizational principles (transparency, convenience, security through data protection, client-orientation, legality) and economic principles (reliability, fairness, financial literacy, economic efficiency, risk regulation) of financial services provision.

Keywords: Financial service, financial market, organizational-economic, banking, insurance, monetary policy, fiscal policy, foreign trade policy.

KIRISH

Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish tizimida raqobat muhitining kuchayishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida bank muassasalari uchun moliyaviy xizmatlar samaradorligi va sifatini oshirish muhim vazifaga aylanmoqda. Mintaqalarda faoliyat ko'rsatayotgan bank muassasalari o'rtasidagi raqobat, xarajatlarni kamaytiruvchi yangi texnologik yechimlarning joriy

etilishi hamda mijozlar talablarining o'zgarishi banklarni o'z xizmatlar tarkibini va ko'rsatkichlarini qayta ko'rib chiqishga undamoqda. Moliyaviy xizmatlar sifatini baholash va ularni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar banklarning barqaror o'sishini ta'minlash, bozordagi ulushini kengaytirish va mijozlarni saqlab qolishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Jahon bankinging hisobotlarida "pandemiya davrida raqamli bank xizmatlaridan ilk foydalanuvchilar sonining 40 foizi onlayn-banking xizmatidan foydalangan bo'lib, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida — 54 foiz, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mintaqasida — 15 foiz, Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida — 10 foizni tashkil etgan"¹. Jahonda moliyaviy xizmatlarini rivojlantirishda, ayniqsa, banklari tomonidan xizmatlar ko'rsatishda nomuvofiqlarni bartaraf etish, bank xizmatlarini rivojlantirishda hududlar imkoniyatidan maqsadli foydalangan holda aholi va tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmat ko'rsatishni tashkil qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Mintaqada bank sohasidagi integratsiya sharoitida tartibga solish me'yorlari doirasida moliyaviy xizmatlar turlarini ko'paytirish, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish, mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish hamda faol xizmat ko'rsatish modellarini qo'llash bank muassasalarining moliyaviy barqarorligi, daromadliligi va investitsion jozibadorligini oshirishning muhim yo'nalishlari sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, jahonda moliyaviy institutlar faoliyati va ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar tarkibida yuridik va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda moliya institutlarini sifat jihatdan rivojlantirish va xizmat ko'rsatish madaniyatini yanada oshirish, zamonaviy talablarga ko'ra moliyaviy xizmatlari sifati va samaradorligini ta'minlash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «O'zbekiston–2030» strategiyasida "pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish"² kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni hal etishda moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni zamonaviy talablarga ko'ra tashkil etish, bank xizmatlarida kreditlash mexanizmidan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bank xizmatlari prognoz ko'rsatkichlarini asoslash kabi yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yevropa Markaziy bankinging yetakchi mutaxasisi Olivier de Bandt Fransiya Markaziy banki (Banque de France)da tadqiqotlar o'tkazish direktori vazifasini bajaradi va moliyaviy barqarorlik masalalari bo'yicha ekspert sifatida tanilgan. U

¹ World bank Report. <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2022/06/29/covid-19-drives-global-surge-in-use-of-digital-payments>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023-yil 11-sentyabr PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

moliyaviy xizmatlar sohasida, ayniqsa, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalari, banklarda risklarini boshqarish, moliyaviy inqirozlarni oldini olish mexanizmlari, bank va sug'urta kompaniyalari faoliyatini tartibga solish masalalarini o'rganishga katta hissa qo'shgan [1].

Moliyaviy xizmatlar sohasidagi yetakchi olim Thorsten Beck moliyaviy bozorlar va moliyaviy institutlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Uning asosiy tadqiqot yo'nalishlari moliyaviy rivojlanish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bank tizimlarining samaradorligi o'rganish, rivojlanayotgan bozorlarda moliyaviy xizmatlar, mintaqaviy moliyaviy xizmatlar va ularning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish qaratilgan [2].

Yana bir olimlar jamoasi Franklin Allen va Douglas Gale moliyaviy bozorlar hamda xizmatlar sohasidagi eng nufuzli tadqiqotchilar hisoblanadi. Ular moliyaviy innovatsiyalar, moliyaviy barqarorlik va moliyaviy inqirozlar mexanizmlarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Bu borada moliyaviy inqirozlar nazariyasi, moliyaviy bozorlar tuzilishi, korporativ boshqaruv, institutsional investorlar roli tadqiqotlari moliyaviy xizmatlar sohasidagi risklarni baholash va boshqarish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning tadqiqot natijalari ko'plab davlatlarning moliyaviy siyosatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatgan [3].

Rossiya Moliya vazirligining "Ilmiy-tadqiqot moliya instituti" qoshidagi Byudjet tahlili va prognozlashtirish markazi rahbari Yevsey Gurvich davlat moliyasi va byudjet siyosati, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy xizmatlar sohasini tartibga solish, pensiya tizimi islohoti asosida MDH mamlakatlarida moliyaviy xizmatlar sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tavsiyalar ishlab chiqqan hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan [4].

Aleksey Kudrin esa mamlakatlar moliya tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida moliyaviy xizmatlar sohasini isloh qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish masalalari keng yoritilgan [5].

Abel Aganbegyan esa mamlakatlarda moliyaviy xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlarida moliyaviy xizmatlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik chuqur o'rganilgan [6].

Mazkur sohani o'zbekistonlik olimlardan Sh.Z.Abdullayeva, A.A.Omonov, F.I.Mirzayev, O.F.Aliqoriyev, G.A.Bekmuradova, O.A.Ortiqov, O.B.Sattarov, A.K.Qodirov, Sh.Yakubova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Shu bilan birga Z.T.Mamadiyarov ishida bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi va bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog'liqligi asoslab berilgan. X.A.Xudayarova tadqiqotida esa tijorat banklarining masofaviy xizmatlarini yanada rivojlantirishda bank chakana xizmatlari bozorini takomillashtirish taklif etilgan.

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, Prezidentimizning farmon va qarorlari, qonun hamda tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada iqtisodiy o‘rtni rag‘batlantirishda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish muhim o‘ringa ega. Bu nafaqat yalpi hududiy mahsulotni rag‘batlantiradi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga olib keladi. Xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi turli mutaxassislarini talab qiladi, bu esa ishsizlikni kamaytirish va ish bilan bandlik darajasini oshirishga yordam beradi. Xizmat ko‘rsatish sohasida xizmatlarning diversifikatsiyalashishi an‘anaviy xizmat ko‘rsatish bilan birga, zamonaviy (raqamli texnologiyalarga asoslangan) xizmatlar ko‘rsatishni kengayishi orqali zamonaviy ish o‘rinlarini paydo qiladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi mintaqani sarmoyadorlar uchun yanada jozibador bo‘lgan talabini qondirish orqali turmush sifatini yaxshilashga sharoit yaratadi. Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi sifatli xizmatlar ko‘rsatish, sayyohlar va investorlarni jalb etish orqali hududda investitsiyalarni jalb etish va mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, istiqbolda bunday natijalarga erishish uchun ma‘lum bir hududning xususiyatlari va ehtiyojlariga muvofiq xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish uchun samarali boshqaruv va strategik rejalashtirish zarur.

O‘tgan yigirmanchi asrda xizmat ko‘rsatish sohasini tasniflash yo‘li bilan aniqlash tendensiyasi mavjud edi. Hozirgi vaqtda xizmat ko‘rsatish sohasini alohida turlarga ajratish uchun bir nechta xalqaro va milliy tasniflar faol qo‘llanilib kelmoqda. Bularga Jahon savdo tashkiloti (JST) tasniflagichi, barcha turdagi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha tarmoqning xalqaro standart tasniflagichi, iqtisodiy faoliyat turlarining milliy tasniflagichi, aholiga xizmat ko‘rsatish turlarining milliy tasniflagichi kabilar tegishli.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, xizmat ko‘rsatish sohasining chegaralarini aniqlash ancha murakkab jarayon. JST tasniflagichiga ko‘ra, xizmat ko‘rsatish sohasi quyidagi tarmoqlarni o‘z ichiga oladi:

- Biznes xizmatlari (shu jumladan professional xizmatlar).
- Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (shu jumladan pochta, telekommunikatsiya va audiovizual xizmatlar).
- Qurilish va tegishli muhandislik xizmatlari.
- Tarqatish xizmatlari (shu jumladan ulgurji va chakana savdo xizmatlari).
- Ta‘lim xizmatlari.
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog‘liq xizmatlar.
- Moliyaviy xizmatlar (sug‘urta, bank xizmatlari va qimmatli qog‘ozlar bozori xizmatlari).
- Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar.
- Turizm va sayohatga oid xizmatlar.

- Dam olish, madaniy va sport tadbirlarini tashkil etish xizmatlari (audiovizual xizmatlardan tashqari).
- Transport xizmatlari.
- Ro'yxatga kiritilmagan boshqa xizmatlar (masalan, maishiy xizmatlar)¹.

| TASHKILIY TAMOYILLAR | IQTISODIY TAMOYILLAR |
|---|--|
| <p>1. Shaffoflik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Moliyaviy xizmatlar shartlari, narxlari va xarajatlari to'g'risida to'liq va aniq ma'lumot taqdim etish; • Yashirin to'lovlar va qo'shimcha shartlarning bo'lmasligi; • Shartnoma tuzish jarayonida barcha muhim jihatlarni yaqqol ko'rsatish; • Mijozlarni xizmatdan foydalanishdan oldin barcha risklardan xabardor qilish. <p>2. Qulaylik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini keng aholi qatlamlariga taqdim etish; • Turli demografik guruhlar (yoshlar, keksalar, kam ta'minlanganlar) uchun qulaylik yaratish; • Xizmatlarni 24/7 rejimida taqdim etish; • Geografik joylashuvdan qat'i nazar xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash. <p>3. Xavfsizlik ta'minlash asosida ma'lumotlarni himoya qilish tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni himoyalash • Kiber xavfsizlik bo'yicha zamonaviy choralarni qo'llash; • Firibgarliklarni oldini olish tizimlarini joriy etish. <p>4. Mijozga yo'naltirilganlik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mijoz ehtiyojlarini o'rganish va tushunish; • Mijoz murojaatlariga tezkor javob qaytarish tizimlarini yaratish; • Mijozlar fikrlarini muntazam o'rganish va tahlil qilish. <p>5. Qonuniylik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Milliy va xalqaro qonunlarga rioya qilish; • Moliyaviy nazorat organlari talablarini bajarish; • Moliyaviy operatsiyalarni to'g'ri hisobga olish va hisobot berish. | <p>1. Ishonchlilik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Moliyaviy barqarorligini ta'minlash; • Mijozlarning mablag'lari va ma'lumotlarini himoya qilish; • O'z majburiyatlarini vaqtida va to'liq bajarish. <p>2. Adolatlilik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Narxlarni belgilashda adolatli yondashuvlarni qo'llash; • Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik; • Nizolarni adolatli va tezkor hal qilish mexanizmlarini yaratish. <p>3. Moliyaviy savodxonlik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mijozlarga moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ma'lumotlar berib borish; • Mijozlarning ehtiyojlariga mos xizmatlarni tanlashda yordam berish; • Moliyaviy qarorlarni qabul qilishda professional maslahatlar taqdim etish. <p>4. Iqtisodiy samaradorlik tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Xizmat ko'rsatish xarajatlarini optimallashtirish; • Xizmatlar rentabelligini ta'minlash; • Resurslardan samarali foydalanish; • Daromadlilik va investitsiya qaytimini oshirish. <p>5. Riskni tartibga solish tamoyili:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Operatsion, kredit va likvidlik risklarini baholash orqali boshqarish; • Riskni diversifikatsiyalash qilish; • Risk va daromad o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash. |

1-rasm. Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish tamoyillarining tashkiliy-iqtisodiy guruhlanishi²

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish jarayoni bir qator fundamental tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar moliyaviy institutlarning

¹ http://www.ved.gov.ru/mdb/information/attendance/trade_and_wto/

² Muallif ishlanmasi.

mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarini, xizmatlar sifatini va moliyaviy bozor barqarorligini ta’minlash uchun zarur (1-rasm).

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish tamoyillarining tashkiliy va iqtisodiy guruhlarga ajratilishi zamonaviy moliya-bank tizimining tuzilmaviy-funksional xususiyatlarini kompleks tarzda tushunish imkonini beradi. Tashkiliy tamoyillar mijozlar bilan munosabatlarni samarali tashkil etish, xizmatlar jarayonlarini optimallashtirilgan ko‘rinishda yo‘lga qo‘yish va ma’lumotlar hamda operatsiyalarning xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular moliyaviy institutning ichki jarayonlari samaradorligini oshirishning asosiy vektorlarini belgilaydi.

Iqtisodiy tamoyillar esa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishning moliyaviy-iqtisodiy jihatlariga qaratilgan bo‘lib, ular moliyaviy barqarorlik, samaradorlik, rentabellik, riskni tartibga solish va ijtimoiy-iqtisodiy mas’uliyat kabi muhim faoliyat yo‘nalishlarini qamrab oladi. Bu tamoyillar moliyaviy institutning nafaqat tijorat maqsadlariga erishishini, balki barqaror iqtisodiy rivojlanish va jamiyat manfaatlariga xizmat qilishini ham ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashkiliy va iqtisodiy tamoyillarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning yaxlit tizim sifatida amal qilishi moliyaviy institutlarga raqobatbardosh xizmatlar ko‘rsatish, mijozlar ishonchini qozonish va moliyaviy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ushbu tamoyillarning muvozanatli tatbiq etilishi, bir tomondan, yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatishni ta’minlasa, ikkinchi tomondan, moliyaviy institutlarning barqaror o‘sishi va rivojlanishini kafolatlaydi.

Moliyaviy xizmatlar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi hamda ular milliy iqtisodiy tizimning barqaror ishlashini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Moliyaviy xizmatlar iqtisodiy subyektlarning pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarni bajarish, moliyaviy vositalardan foydalanish, investitsion resurslarni taqsimlash va moliyaviy xavflarni boshqarish kabi funksiyalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Ushbu xizmatlar bevosita to‘lov tizimlari, kreditlash, sug‘urta, investitsiya faoliyati, lizing va pensiya ta’minoti kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Moliyaviy xizmatlarni ularning ko‘rsatish shakllari va subyektlariga qarab turlicha tasniflash mumkin. Xususan, xizmatlar bank, sug‘urta, investitsiya va boshqa maxsus moliyaviy institutlar tomonidan ko‘rsatiladi. An’anaviy moliyaviy xizmatlar odatda tijorat banklari yoki sug‘urta kompaniyalari tomonidan taqdim etilsa, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida fintech kompaniyalari orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar ham keng ommalashmoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlar, xususan, mobil ilovalar, onlayn to‘lov tizimlari va kriptovalyutalar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar, bozordagi raqobat muhitini kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, moliyaviy xizmatlar iqtisodiyotda moliyaviy oqimlarning samarali boshqaruvi, resurslarning qayta taqsimlanishi va investitsion faoliyatni rag‘batlantirish orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu xizmatlar aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish, xatarlarni diversifikatsiya qilish va

to'lov tizimlarining barqaror ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, moliyaviy xizmatlar sohasini tizimli rivojlantirish va uni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. De Bandt O. Why do insurers fail? A comparison of life and non-life insolvencies using a new international database. *Débats économiques et financiers*. – 2020. – № 36. – P. 1-47.
2. Beck T., Levine R., Loayza N. Finance and the Sources of Growth. *Journal of Financial Economics*. – 2000. – Vol. 58, № 1. – P. 261-300.
3. Allen F., Gale D. Financial Intermediaries and Markets. *Econometrica*. – 2004. – Vol. 72, № 4. – P. 1023-1061.
4. Гурвич Е.Т. Бюджетная политика и экономическое развитие. – Москва. Научно-исследовательский финансовый институт Минфина России, 2023. – 215 с.
5. Кудрин А.Л. Стабилизация финансовой системы в условиях глобальной нестабильности. *Финансы*. – 2023. – № 5. – С. 3-11.
6. Аганбегян А.Г. Финансы, бюджет и банки в новой России. – Москва. Дело, 2022. – 318 с.
7. Adizov, B., Tokhirov, J., & Hamidov, S. (2024). Trends in employment of graduates of ecology education in higher education. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 05012). EDP Sciences.
8. Hamidov, S., Tokhirov, J., & Adizov, B. (2024). Processes of management of competitiveness of ecotourism destinations and methodology of its assessment. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 587, p. 05021). EDP Sciences.
9. Tokhirov, J. R. (2021). Interaction factors for improving the quality and efficiency of educational services based on public-private partnership. In *World science: problems and innovations* (pp. 63-65).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2023-yil 11-sentyabr PF-158-sonli “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**